

Latviya JKning 177.1-moddasida avtomatlashtirilgan tizimidan foydalanib ma'lumotlarga ishlov berish (firibgarlik) uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur jinoyat uchun 3 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish belgilangan. Kompyuter firibgarligini oldindan til biriktirgan bir guruh shaxs tomonidan sodir etilishi (2-qism – 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi) va uyushgan guruh tarkibida yoki ko'p miqdorda (3-qism – 2 yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi) javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan.

#### Foydalanilgan manbalar

1. Brenner S. Cybercrime and the Law: Challenges, Issues, and Outcomes. – Boston: Northeastern University Press, 2010. – P. 25–27.
2. Council of Europe. Convention on Cybercrime (Budapest Convention), 23 November 2001 // ETS No.185. – URL: <https://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention>
3. Sieber U. Legal Aspects of Computer-Related Crime in the Information Society // Computer Law & Security Review. – 2016. – Vol. 32. – No. 4. – P. 500–515.
4. Ambos K. Economic Crime and Cybercrime in European Criminal Law // European Criminal Law Review. – 2018. – No. 3. – P. 289–305.
5. Council of Europe. Cybercrime Convention Committee (T-CY): 24/7 Network Guidelines. — Strasbourg, 2020. URL: <https://www.coe.int/en/web/cybercrime/24-7-network>
6. INTERPOL. Global Cybercrime Strategy and Operations. – Lyon, 2021. – URL: <https://www.interpol.int/en/Crimes/Cybercrime>
7. Степанов-Егиянц В. Ответственность за компьютерные преступления // Законность, 2005. – № 12. – С. 51.
8. Фролов М.Д. Уголовная ответственность за мошенничество в сфере компьютерной информации по законодательству стран Европы и СНГ // Ученые труды Российской академии адвокатуры и нотариата, 2015. – №4 (39). – С. 152
9. Уголовный Кодекс Республики Болгария. – Санкт-Петербург. Юридический центр Пресс, 2001 / Под редакцией к.ю.н. А.И. Лукашова.
10. Жалинский А.Э. Современное немецкое уголовное право. – М., 2004. – С. 462-463.
11. Уголовный кодекс Голландии / Науч. ред. д-ок. юрид. наук Б.В. Волженкин, пер с англ. И.В. Мироновой. 2-е изд. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2015.
12. Criminal Code of Denmark as of 2012. // [https://www.unodc.org/cld/document/dnk/2011/criminal\\_code\\_of\\_denmark\\_as\\_of\\_2012\\_danish\\_version.html](https://www.unodc.org/cld/document/dnk/2011/criminal_code_of_denmark_as_of_2012_danish_version.html)
13. The General Civil Penal Code of Norway. With subsequent amendments, the latest made by Act of 21 December 2005 No. 131. Act of 22 May 1902 No. 10. // [www.app.uio.no/ub/ujur/oversatte-lover/data/lov-19020522-010-eng.pdf](http://www.app.uio.no/ub/ujur/oversatte-lover/data/lov-19020522-010-eng.pdf).



Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatlar bo'yicha xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasida AKT orqali sodir etilgan o'g'rilik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda universal, texnologik neytral va natijaga yo'naltirilgan yondashuvlar shakllangan. Ushbu yondashuvlar jinoyatni sodir etish vositasidan qat'i nazar, mulkiy zarar yetkazish fakti va aybdorning g'arazli maqsadini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Mazkur ijobiy tajribalar O'zbekiston Respublikasida AKT orqali sodir etilgan o'g'rilik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishni takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

## KOREYA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKALARI MA'MURIY-HUQUQBUZARLIKLAR TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIGINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI: MILLIY MA'MURIY QONUNCHILIKNI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI



**MAXSADOV**  
**Maxsatullo Ismatovich**  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonunchiligi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Janubiy Koreyaning ilg'or tajribasi, xususan, ma'muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish, jarimalar tizimining o'ziga xos xususiyatlari va huquqbuzarliklarning oldini olishdagi samarali mexanizmlari o'rganilgan. Tahlil natijalariga asoslanib, O'zbekiston milliy ma'muriy qonunchiligini takomillashtirish va modernizatsiya qilish, jazo choralarini liberallashtirish va xorijiy tajribani implementatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy huquqbuzarlik, qiyosiy-huquqiy tahlil, ma'muriy javobgarlik, Janubiy Koreya qonunchiligi, milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish, ma'muriy tartib-taomillar, huquqiy implementatsiya.

**Аннотация.** В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ законодательства об административных правонарушениях и основ привлечения к административной ответственности Республики Корея и Республики Узбекистан. В ходе исследования изучен передовой опыт Южной Кореи, в частности, цифровизация административных процедур, специфические особенности системы штрафов и эффективные механизмы предотвращения правонарушений. На основе результатов анализа разработаны научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию и модернизации национального административного законодательства Узбекистана, либерализации мер наказания и имплементации зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** административное правонарушение, сравнительно-правовой анализ, административная ответственность, законодательство Южной Кореи, модернизация национального законодательства, административные процедуры, правовая имплементация.

**Abstract.** This article provides a comparative legal analysis of the legislation on administrative offenses and the grounds for administrative responsibility in the Republic of Korea and the Republic of Uzbekistan. During the study, the advanced experience of South Korea was examined, particularly the digitalization of administrative procedures, the specific features of the fine system, and effective mechanisms for preventing offenses. Based on the analytical results, scientific and practical proposals and recommendations have been developed for the improvement and modernization of the national administrative legislation of Uzbekistan, the liberalization of penalties, and the implementation of foreign experience.

**Keywords:** administrative offense, comparative legal analysis, administrative responsibility, legislation of South Korea, modernization of national legislation, administrative procedures, legal implementation.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, jamoat tartibi va xavfsizligini muhofaza qilish hamda inson huquq va erkinliklarini huquqbuzarliklardan samarali himoya qilish har qanday huquqiy davlatning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va shiddatli raqamlashtirish davrida ma'muriy-huquqiy munosabatlar ko'lami kengayib, huquqbuzarliklarning yangi transformatsion shakllari (kiberhuquqbuzarliklar, smart-texnologiyalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar va h.k.) yuzaga kelmoqda. Bu esa milliy ma'muriy javobgarlik institutini tubdan modernizatsiya qilish, uning preventiv (profilaktik) funksiyasini kuchaytirish va sohadagi qonunchilikni xalqaro ilg'or tajribalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli huquqiy islohotlar jarayonida, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi [1] doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish va ma'muriy qonunchilikni liberalashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Amaldagi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi qariyb o'ttiz yil avval qabul qilingan bo'lib, unga ko'plab o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganiga qaramay, u bugungi kunning dinamik ijtimoiy-huquqiy munosabatlariga va raqamli boshqaruv ("Aqlli shahar", "Elektron mahalla") talablariga to'liq javob bera olmayapti. Shundan kelib chiqib, milliy qonunchilikni kodifikatsiya qilish, ma'muriy javobgarlik mexanizmlarini soddalashtirish va jazo tizimini insonparvarlashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masaladir.

Ushbu yo'nalishda Osiyo mintaqasida yuqori iqtisodiy va texnologik salohiyatga, shu bilan birga, rivojlangan va barqaror huquqiy tizimga ega bo'lgan Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) tajribasini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Ma'muriy-deliqt huquqi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat tartibini saqlashning eng muhim vositasi hisoblanadi. Koreya Respublikasining tarixiy tajribasi mayda huquqbuzarliklar va yo'l harakatini tartibga solish yondashuvlarining chuqur evolutsiyasini ko'rsatib, unda qat'iy tartibga solish choralari moslashuvchan rehabilitatsiya mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilgan [2]. Koreya tajribasini tizimlashtirish O'zbekiston Respublikasining

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (MJtK) integratsiya qilinishi milliy huquq-tartibot tizimining samaradorligini sifat jihatidan oshirishga qodir bo'lgan asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Ma'muriy-huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonunchilikni modernizatsiya qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish masalalari xalqaro va milliy yuridik fanda doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Biroq, Koreya Respublikasi va O'zbekiston qonunchilik tizimlarining preventiv (profilaktik) salohiyatini raqamli transformatsiya sharoitida qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan yaxlit tadqiqotlar ko'lami yetarli emas. Ushbu muammoning turli jihatlarini yuzasidan bildirilgan ilmiy qarashlarni quyidagicha guruhlash va ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish maqsadga muvofiq:

Koreyalik olim Park Sang-chul o'z tadqiqotlarida Koreya Respublikasining ma'muriy huquq tizimi to'liq raqamlashtirilgan nazorat va intizomiy choralalar (smart-sanksiyalar) ustiga qurilganini, bu tizim huquqbuzarliklarni sodir etilish bosqichidayoq to'xtatishda (real-time prevention) yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ma'muriy sanksiyalar ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali qo'llanilishi lozim [3].

S.Parkning ma'muriy jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish va algoritmlarga topshirish g'oyasini yuqori baholagan holda, uning ushbu yondashuvini ma'muriy-huquqiy munosabatlarda inson huquqlari kafolati nuqtayi nazaridan biroz cheklovchi deb hisoblaymiz. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda subyektiv tomon (shaxsning aybi, motivi va moddiy sharoiti) faqat inson omili (sudya yoki vakolatli mansabdor shaxs) tomonidan to'g'ri baholanishi mumkin. Koreya modelining raqamli monitoring tizimini (masalan, intellektual videokuzatuv) qabul qilishimiz mumkin, biroq jazo muqarrarligini mexanik algoritmlarga mutloq topshirish milliy huquqiy mentalitetimiz va insonparvarlik prinsiplarimizga qisman zid keladi.

G'arb tadqiqotchisi Kwon Kim Koreyaning ma'muriy qonunchiligini tahlil qila turib, mamlakatda "Ma'muriy protseduralar to'g'risida"gi qonunning ustuvorligi jismoniy va yuridik shaxslarga sanksiya qo'llashdan ko'ra, ularning huquqiy madaniyatini

yuksaltirishga – "huquqiy gigiyena" (legal hygiene) muhitini yaratishga qaratilganini isbotlaydi [4].

K.Kwonning ma'muriy huquq faqat jazolash chorasi emas, balki "huquqiy gigiyena" vositasi bo'lishi kerakligi haqidagi konseptual qarashini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Ushbu yondashuv O'zbekiston qonunchiligini modernizatsiya qilish uchun juda muhim. Zero, amaldagi MJtK asosan jazolovchi (fiskal va repressiv) xarakterga ega. Bizning fikrimizcha, Koreya tajribasidan andoza olgan holda, milliy qonunchiligimizda ma'muriy ta'sir choralarining profilaktik va rag'batlantiruvchi normalari ulushini keskin oshirish, jazo tizimini liberalashtirish lozim.

Taniqli olim X.T. Odilqoriyev ma'muriy qonunchilikni modernizatsiya qilish va kodifikatsiyalash masalalariga to'xtalib, qonun hujjatlarining barqarorligi va to'g'ridan-to'g'ri ishlash xususiyatiga ega bo'lishi lozimligini, ma'muriy normalarning haddan tashqari tarqoqligi subyektivizm va korruptsiyaga yo'l ochishini qayd etadi [5].

Professor X.T. Odilqoriyevning qonunchilikni kodifikatsiyalash borasidagi fikrlariga qo'shilgan holda, biz faqatgina moddiy normalarni birlashtirish yetarli emas degan pozitsiyadamiz. Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularda moddiy ma'muriy normalar va ma'muriy-protsessual normalar aniq chegaralangan va alohida tizimlashtirilgan. O'zbekistonda ham ma'muriy javobgarlik tizimini yangilashda, uning protsessual qismini mutlaqo alohida, raqamli sudlov va elektron elektron ish yuritish prinsiplari asosida modernizatsiya qilish davr talabidir.

Kriminolog olim I.Ismoilov huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishda asosiy urg'uni ijtimoiy omillarga, ya'ni huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga moslashtirish (probatsiya faoliyati) masalalariga qaratadi [6].

I.Ismoilovning ijtimoiy rehabilitatsiya borasidagi yondashuvini inkor etmagan holda, zamonaviy sharoitda huquqbuzarliklar profilaktikasining vektori kiber-hududga ko'chayotganini inobatga olishimiz kerak deb hisoblaymiz. Koreya tajribasida probatsiya faoliyati va ma'muriy nazorat elektron bilakuzuklar, raqamli daktiloskopiya va tarmoq monitoringi bilan to'liq integratsiya qilingan. Bizning polemik pozitsiyamiz shundan iboratki, an'anaviy

ijtimoiy rehabilitatsiya usullari Koreya modeli asosida raqamli monitoring tizimlari bilan sintez qilinmas ekan, kiber-sharoitda jinoyatchilikning oldini olish imkonsiz bo'lib qolaveradi.

Huquqshunos olim Z.M. Islomov huquqiy tizimlarni qiyosiy o'rganishda har bir xalqning o'ziga xos madaniy va tarixiy qadriyatlarini (huquqiy mentalitetini) hisobga olish shartligini, xorijiy tajribani ko'r-ko'rona koachirish (huquqiy transplantatsiya) salbiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlagan [7].

Professor Z.M. Islomovning ushbu metodologik ogohlantirishi bizning tadqiqotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega. Koreya Respublikasining ma'muriy qonunchiligi va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini o'rganar ekanmiz, biz uning barcha elementlarini mexanik ravishda O'zbekistonga ko'chirish tarafdori emasmiz. Masalan, Koreyadagi ma'muriy jarimalarning haddan tashqari yuqori miqdori va qat'iy korporativ nazorat tizimi bizning ijtimoiy-iqtisodiy realligimizga mos kelmasligi mumkin. Biroq, ulardagi jamoat tartibini saqlashda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorlik qilish modeli (masalan, Koreya ko'ngilli politsiya guruhlarini) bizning "Mahalla yetiligi" tizimiga konseptual jihatdan juda yaqin va aynan shu jihatni milliy zaminga moslab integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Koreya Respublikasining «Mayda huquqbuzarliklar uchun jazolash to'g'risida»gi qonuni (Minor Offenses Act / 경범죄처벌법) 1954-yilda qabul qilingan bo'lib, u 1912-yildagi Yaponiyaning xavfsizlik buzilishlarini jazolash to'g'risidagi nizomini butunlay bekor qildi [2]. 1970–1980-yillardagi avtoritar rejim davrida ushbu normativ hujjat jamoat xulq-atvori va axloqini qat'iy nazorat qilish uchun, jumladan, hippi uslubidagi sochlar, mini-yubkalar kiyganlik va «ruxsat etilmagan maxfiy raqslar» uchun faol qo'llanilgan. Biroq, jamiyatning demokratlashuvi va ijtimoiy standartlarning o'zgarishi bilan qonun tubdan o'zgardi. 2012-yil 21-martda amalga oshirilgan (2013-yil 22-martdan kuchga kirgan) keng ko'lamli islohot eskirgan tarkiblarni dekriminallashtirdi va huquqbuzarliklarni ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab uchta asosiy toifaga ajratdi [2]:

- **A toifasi (Type A):** Bo'sh qolgan uylarga noqonuniy kirish, yashirin qurol olib yurish, jamoat

joylarini ifloslantirish (tupurish, tamaki qoldiqlari, saqich tashlash), belgilanmagan joylarda hojat chiqarish, tinchlikni buzish, hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, tabiatga zarar yetkazish va fuqarolarga shilqimlik qilish kabi mayda huquqbuzarliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu qilmishlar 100 ming vongacha jarima, 30 sutkagacha qamoq yoki ma'muriy jarima bilan jazolanadi [2].

• **B toifasi (Type B):** Iqtisodiy tartib va halol raqobatga rahna soluvchi huquqbuzarliklarni, jumladan, noqonuniy nashrlar, chalg'ituvchi reklamlar, boshqalarning tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va chiptalarni chayqovchilik qilishni o'z ichiga oladi [10]. Sanksiya 200 ming vongacha jarima, qamoq yoki ma'muriy jarimani nazarda tutadi.

• **C toifasi (Type C):** Davlat apparatini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ma'muriy muassasalarda mast holatda zo'ravonlik qilish yoki tartibsizlik keltirib chiqarishni o'z ichiga oladi va 600 ming vongacha jarima yoki qamoq jazosini keltirib chiqaradi [2].

Ushbu qonunni amalga oshirishning eng muhim prinsipi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan vakolatlarni suiiste'mol qilishni taqiqlash hisoblanadi (2-modda). Bu esa fuqarolarning fundamental huquqlarini noqonuniy ravishda cheklashga yo'l qo'yilmasligini belgilaydi [2].

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi raqamli makondagi tajovuzlarning yangi shakllariga tezkor munosabat bildirishni talab qildi. Koreyada telefon orqali bezorilik qilish, istalmagan matnli xabarlar, elektron xatlar va raqamli bezovtalikning boshqa shakllarini yuborish dastlab «Mayda huquqbuzarliklar uchun jazolash to'g'risida»gi qonunning A toifasidagi mayda huquqbuzarlik sifatida qaralgan (mischievous calling, or sending SMS, e-mail, etc.). Jabrlanuvchini uchrashuvga yoki tanishishga majburlash, uning ketidan ta'qib qilish (stalking / consistent harassment) kabi tizimli harakatlar 100 ming vongacha (taxminan 73 AQSh dollari) jarima bilan jazolangan [2].

Biroq, jamoatchilikning tanqidi va fojiali voqealar (masalan, Seuldaagi Sindang metro bekatidagi qotillik) ta'sirida Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi 2021-yil 21-oktabrdan kuchga kirgan «Ta'qib qilish jinoyatlarini jazolash to'g'risida»gi qonunni qabul qildi [11]. Bu qonun huquqiy makonni isloh qildi va tizimli ta'qib qilishni mayda

ma'muriy huquqbuzarliklar toifasidan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki 30 million vongacha jarima bilan jazolanadigan jinoiy javobgarlik darajasiga ko'tardi [2].

O'zbekiston uchun ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli makondagi mayda ta'qiblar va kiberbullingni dastlab ma'muriy jazo orqali jilovlash, qilmish tizimli va ijtimoiy xavfli tus olganda esa jinoiy javobgarlikka tortish tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish zarur. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining MJtKda kiberbulling uchun maxsus tarkib mavjud emas, bunday harakatlarni tuhmat yoki haqorat moddalari bo'yicha malakalash esa raqamli makonning o'ziga xos xususiyatlarini va tizimli tazyiq tabiatini hisobga olmaydi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasining ma'muriy javobgarlik tizimini qiyosiy tahlil qilish yo'l harakati va jamoat tartibini saqlash sohasidagi profilaktika mexanizmlarida konseptual bo'shliqlar borligini ko'rsatadi. O'zbekistonda 2026-yil 1-apreldan boshlab yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun jarima ballarini hisoblash tizimi to'liq kuchga kirdi (bu tizim 2025-yil 20-fevraldagi O'RQ-1033-son Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi 296-son qarori bilan joriy etilgan) [12]. Bir yil davomida 12 ball to'plagan taqdirda, haydovchi sud qarori bilan kamida 6 oy muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilinadi [11]. O'zbekistonda bitta qoidabuzarlik uchun hisoblanadigan eng yuqori ball 2 ball bilan cheklangan, to'plangan ballar ise roppa-rosa bir yildan keyin avtomatlashtirilgan tarzda o'chiriladi [11].

Koreyaning «Yo'l harakati to'g'risida»gi qonuni doirasida jarima ballarini hisoblash tizimi (beol-jeom) haydovchilarni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan boshqa, yanada moslashuvchan va tabaqalashtirilgan prinsiplarga asoslangan [13] (1-jadvalga qarang).

Koreyaning maxsus profilaktik kurslar orqali haydovchilarni rehabilitatsiya qilish tajribasini O'zbekistonda qo'llash korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu fuqarolarga qoidabuzarlik ballari kritik chegaraga yetgunga qadar ularni qonuniy ravishda kamaytirish imkonini beradi.

Jamoat tartibini saqlash sohasida Koreya qonunchiligi Majburiy jamoat ishlarini (Community Service Order – CSO) faol qo'llaydi [8]. Koreyada

1-jadval

| Solishtirish parametri                       | Koreya Respublikasi                                                                                                                                                          | O'zbekiston Respublikasi                                                          |
|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| Huquqni vaqtincha to'xtatib turish chegarasi | 40 ball (har bir ball uchun 1 kunlik cheklov)                                                                                                                                | 12 ball (kamida 6 oy muddatga haydovchilik huquqidan mahrum qilish)               |
| Ballarni jamlash davri                       | 3 yilgacha (agar 1 yil ichida qoidabuzarlik sodir etilmasa va ballar 40 dan oshmasa, o'chiriladi)                                                                            | Birinchi qoidabuzarlikdan boshlab qat'iy 1 yil                                    |
| Ballarning tabaqalanishi                     | Yuqori: telefondan foydalanish – 15 ball; avtobus yo'lagiga chiqish – 30 ball; tezlikni me'yoridan oshirish (>100 km/s) yoki mast holda haydash (0,03%–0,08% BAC) – 100 ball | Past: bitta qoidabuzarlik uchun hisoblanadigan eng yuqori ball 2 balldan oshmaydi |
| Ballarni ixtiyoriy kamaytirish imkoniyati    | Maxsus yo'l harakati xavfsizligi kurslarida qatnashib, 20 ballgacha chegirib tashlash imkoniyati bor (ballari 40 dan kam haydovchilar uchun)                                 | Mavjud emas. Faqat bir yil o'tgach avtomatlashtirilgan tarzda o'chiriladi         |
| Qaror qabul qiluvchi organlar                | Politsiya boshqarmasi boshlig'i                                                                                                                                              | Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari                                   |

jamoat ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki yirik jarimalarga samarali muqobil hisoblanadi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar adliyasi («Yoshlar to'g'risida»gi qonun) va shartli hukm qilingan holatlarda (Jinoyat kodeksining 62-moddasi) [3]. Ushbu jazoni ma'muriy huquqbuzarliklar uchun, xususan, mayda bezorilik va ekologik qoidabuzarliklar uchun qo'llash odil sudlovni insonparvarlashtirishga, jazoni ijro etish muassasalari yuklamasini kamaytirishga va yetkazilgan zararni mehnat orqali qoplashga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining MJtKda jamoat ishlari instituti rasman mavjud bo'lsa-da[14], munitsipal darajada aniq mexanizmlar ishlab chiqilmaganligi sababli, uning mayda maishiy huquqbuzarliklar uchun amaliy qo'llanilishi deyarli nolga teng.

O'tkazilgan tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasining MJtKga quyidagi uchta yangi normalarni kiritish tavsiya etiladi.

**Birinchiidan**, MJtKga quyidagi yangi **41<sup>2</sup>-moddani** kiritish maqsadga muvofiq:

**“41<sup>2</sup>-modda. Kiberbulling**

*Axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'idan yoxud mobil aloqa vositalaridan foydalangan holda shaxsning xohish-irodasiga qarshi uni muntazam ravishda ta'qib qilish, uning shayn-or daxlsizligini buzuvchi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatish, xavotir yoki qo'rquv uyg'otadigan xabarlarni tizimli ravishda yuborish, shuningdek shaxsning roziligisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini yoxud tasvirlarini qasos olish, shantaj qilish yoki obro'sizlantirish maqsadida oshkor qilish, agar ushbu harakatlarda jinoiy jazo nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'lmasa, –*

12 ball to'plaganlik uchun haydovchilik huquqidan 6 oyga mahrum qilish professional haydovchilar, kuryerlar va tashuvchilarning

daromadiga jiddiy zarba berib, ishsizlik va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Maxsus o'quv kurslari orqali 3 ballni «o'chirish» imkoniyati aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga o'z ish joylarini saqlab qolish imkonini beradi [15].

Rasmiy kurslar orqali ballarni kamaytirishning aniq va shaffof mexanizmi haydovchilarning yo'l-patrul xizmati xodimlariga qoidabuzarlikni yashirish yoki guvohnomadan mahrum bo'lmalik uchun pora berish istagini minimal darajaga tushiradi.

Profilaktik o'quv kurslarini o'tkazish pullik asosda tashkil etilishi mumkin. Bu esa Ichki ishlar vazirligi tizimiga yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va zamonaviy o'quv simulyatorlarini xarid qilish uchun budjetdan tashqari qo'shimcha mablag'lar oqimini ta'minlaydi.

Obodonlashtirish va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan mayda huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini MJtKning 161<sup>2</sup>-moddasi orqali transformatsiya qilish asosiy e'tiborni moliyaviy bosimdan huquqbuzarning xulq-atvorini amalda tuzatishga qaratadi.

Chiqindi tashlaganlik yoki tupurganlik uchun jarimalar ijtimoiy jihatdan teng emas: o'ziga to'q fuqarolar uchun bu sezilsiz bo'lsa, kam ta'minlanganlar uchun og'ir zarba bo'ladi. Jamoat ishlari esa huquqbuzarlarni moddiy ahvolidan qat'i nazar tenglashtiradi hamda ularni shaxsiy vaqti va mehnati bilan jazolaydi.

Shuningdek, huquqbuzarlarni obodonlashtirish, ariqlarni tozalash, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish va bog'larni tozalash kabi bepul ishlarga jalb qilish mahalliy budjetlarning (hokimliklarning) kommunal xizmatlar uchun mavsumiy ishchilar mehnatiga sarflanadigan xarajatlarini sezilarli darajada tejash imkonini beradi.

Shu bilan birga, jamoat joylarini tozalashda shaxsan ishtirok etish huquqbuzarlarning o'zgalar mehnati va shahar tozaligiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartiradi hamda qayta huquqbuzarlik sodir etishning oldini oluvchi mustahkam ichki to'siq yaratadi.

Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy qonunchiligini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish MJtKni raqamlashtirish, insonparvarlashtirish va tiklovchi huquqiy mexanizmlarni joriy etish yo'nalishida chuqur modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan normalarni

to'liq joriy etish quyidagi muvofiqlashtirilgan qadamlarni talab qiladi:

Birinchidan, Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda haydovchilar tomonidan ixtiyoriy profilaktika kurslari o'taliganligini avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish va jarima ballarini tezkor qayta hisoblash (ayirish) uchun «E-YHX» yagona axborot tizimini takomillashtirishi lozim;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan obodonlashtirish organlarida majburiy jamoat ishlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash talab etiladi. Unda jazoning ijrosini nazorat qilish va ma'muriy sudlar bilan o'zaro hamkorlik qilishning aniq reglamentlari belgilanishi zarur;

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yangi huquqbuzarlik tarkiblari (ayniqsa, kiberbulling) bo'yicha normalarning noto'g'ri talqin qilinishini istisno etuvchi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan fuqarolarning fundamental huquqlari himoyasini kafolatlovchi tizimli nazorat o'rnatish tavsiya etiladi.

Ilg'or Koreya tajribasining integratsiyalashuvi O'zbekistonga zamonaviy globallashtirish va ijtimoiy munosabatlarning raqamlashtirilishi chaqiriqlariga javob beradigan yanada muvozanatli, ijtimoiy yo'naltirilgan va texnologik ma'muriy huquq tizimini shakllantirish imkonini beradi.

*bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh barobarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.*

*Ushbu moddada «muntazam ravishda» va «tizimli ravishda» deganda, jabrlanuvchining shaxsiy daxlsizligi va ruhiy osoyishtaligini buzishga qaratilgan harakatlarning o'ttiz kalendar kuni davomida ikki va undan ortiq marta takroran sodir etilishi tushuniladi».*

**Ikkinchidan, MJtKga quyidagi yangi 34<sup>2</sup>-moddani kiritish maqsadga muvofiq:**

**“34<sup>2</sup>-modda. Yo'l harakati qoidabuzarliklari bo'yicha hisoblangan jarima ballarini ixtiyoriy ravishda kamaytirish**

*Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun hisoblangan jarima ballarining umumiy miqdori o'n ikki ball dan oshmagan transport vositasining*

*haydovchisi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash organlari tomonidan tashkil etiladigan maxsus profilaktik o'quv kursini o'z tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda tamomlagan taqdirda, –*

*uning amaldagi jarima ballari hisobidan uch ball yechib tashlanadi (kamaytiriladi).*

*Eslatma: Ushbu moddada nazarda tutilgan jarima ballarini kamaytirish huquqidan haydovchi bir yillik muddat davomida faqat bir marta foydalanishi mumkin. Maxsus profilaktik o'quv kurslarini tashkil etish, o'tkazish va tegishli sertifikatlar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”.*

**Uchinchidan, MJtKga quyidagi yangi 161<sup>2</sup>-moddani kiritish maqsadga muvofiq:**

**“161<sup>2</sup>-modda. Jamoat joylarini ifloslantirganlik va jamoat tartibiga tajovuz qilganlik uchun majburiy jamoat ishlari jazosini qo'llash**

Jamoat joylarida, bog'lar, ko'chalar, umumiy foydalanishdagi xiyobonlar, suv havzalari muhofaza zonalar yoki jamoat transportida maishiy chiqindilarni (sigaret qoldiqlari, saqich, qog'ozlar, oziq-ovqat qadoqlari va boshqa yaroqsiz ashyolarni) belgilanmagan joylarga tashlash, tupurish, shuningdek jamoat – joylarida shovqin solish yoxud fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi boshqa nojo'ya harakatlar orqali jamoat tartibiga aniq hurmatsizlik ko'rsatish, –

bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan uch barobarigacha miqdorda jarima solishga yoki yigirma soatdan qirq soatgacha bo'lgan muddatga majburiy jamoat ishlariga jalb qilishga sabab bo'ladi.

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi ma'muriy jazo huquqbuzarning yashash yoxud vaqtincha turgan joyidagi obodonlashtirish va kommunal xizmat ko'rsatish ob'ektlarida, uning asosiy ishi yoki o'qishidan bo'sh vaqtida, kuniga to'rt soatdan ko'p bo'lmagan muddatda bajariladi. Ushbu jazo vo-

yaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga hamda pensiya yoshiga yetgan fuqarolarga nisbatan qo'llanilmaydi”.

Taklif etilayotgan huquqiy normalarni MJtKga kiritish ijtimoiy munosabatlarga, huquqni qo'llash amaliyotiga va davlat sektorining iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MJtKga 41<sup>2</sup>-moddani kiritilishi raqamli munosabatlarni tartibga solishdagi eng muhim bo'shliqni to'ldiradi. O'zbekistonning hozirgi huquqni qo'llash amaliyoti tarmoqdagi tazyiqlarni bilvosita moddalar bo'yicha tasniflashga majbur bo'lmoqda, bu esa fuqarolarni himoya qilish samaradorligini pasaytiradi. Yangi normaning ta'sirini baholash quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ichki ishlar organlariga kiberbullingni erta bosqichda jilovlashning qonuniy vositalarini taqdim etish nizolarning real hayotga ko'chishi xavfini kamaytiradi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi tazyiqlar tufayli kelib chiqadigan yoshlar o'rtasidagi suitsid (o'z joniga qasd qilish) holatlarini sezilarli darajada qisqartiradi;

- aniq sanksiyalar internet foydalanuvchilarida virtual makondagi har qanday buzg'unchi xatti-harakat uchun jazo muqarrar ekanligi to'g'risida tushunchani shakllantiradi;

- MJtKda aniq tarkibning belgilanishi prokuratura va sud organlarini dastlabki bosqichlarda internet-tazyiqlarni jinoiy javobgarlikka tortish kabi murakkab va samarasiz jarayonlardan xalos qiladi.

MJtKning 34<sup>2</sup>-moddasi O'zbekistonning yangi jarima ballari tizimida nazarda tutilgan faqat jazolashga qaratilgan yondashuvga samarali muqobil taklif hisoblanadi. Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ballarni ixtiyoriy ravishda kamaytirish imkoniyati haydovchilarni o'z malakasini oshirishga va qonunlarga rioya qilishga rag'batlantiradi [14].



## Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/8050769>.
2. Minor Offences Act – Korean LII, [http://www.koreanlii.or.kr/w/index.php/Minor\\_Offences\\_Act](http://www.koreanlii.or.kr/w/index.php/Minor_Offences_Act)
3. Park, Sang-chul. Administrative Law and Digital Governance in South Korea: Smart Sanctions and Algorithmic Regulation. Seoul National University Law Press, 2022. – pp. 145–168.
4. Kwon, Kim. The Principle of Administrative Procedures and Legal Hygiene in East Asian Jurisdictions. Journal of Comparative Administrative Law, Vol. 14, No. 3, 2023. – pp. 89–112.
5. Odilqoriyev, X. T. Davlat va huquq nazariyasi: Modernizatsiya va qonunchilikni kodifikatsiyalash masalalari. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021. – 432 b.
6. Ismailov, I. Kriminologiya: Huquqbuzarliklar profilaktikasi va ijtimoiy rehabilitatsiya tizimining samaradorligi // Tahliliy tadqiqotlar jurnali, 2023. – №2. – 45–52-b.
7. Islomov, Z. M. Qiyosiy huquqshunoslik (Solishtirma huquq): Huquqiy tizimlar transformatsiyasi va huquqiy mentalitet. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020. – 315 b.
8. THE COMMUNITY SERVICE ORDER IN KOREA Woo Sik Chung, [https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/RS\\_No61/No61\\_18VE\\_Chung1.pdf](https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/RS_No61/No61_18VE_Chung1.pdf)
9. Minor Offences Act - KoreanLII, [http://www.koreanlii.or.kr/w/index.php?title=Minor\\_Offences\\_Act&diff=30391&oldid=778](http://www.koreanlii.or.kr/w/index.php?title=Minor_Offences_Act&diff=30391&oldid=778)
10. PUNISHMENT OF MINOR OFFENSES ACT, [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?lang=ENG&hseq=37480](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?lang=ENG&hseq=37480)
11. Harmless flirting or deadly obsession: addressing stalking and victim protections in South Korea, Emily Sipes, [https://www.thegwlr.org/s/CSipes\\_5612.pdf](https://www.thegwlr.org/s/CSipes_5612.pdf).
12. O'zbekiston Respublikasining 20.02.2025 yildagi "Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi O'RQ-1033-son Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-7392575>.
13. Driver's License > Cancellation and Suspension of Driver's License due to Traffic Infringe | Easy to Find, Practical Law, <https://www.easylaw.go.kr/CSM/CsmOvSave.laf?csmSeq=851&ccfNo=4&cciNo=1&cnpcIsNo=2>.
14. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // <https://lex.uz/uz/docs/-7392575>.
15. Endilikda yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun hisoblangan jarima ballari belgilangan miqdordan oshsa, haydovchi transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilinishidan xabaringiz bormi? - Lex.uz - Huquqiy tushuntirishlar, <https://lex.uz/uz/explanation/386>.



## O'ZBEKISTONDA YOSHLAR HUQUQBUZARLIKLARI PROFILAKTIKASI: MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI, STATISTIK TENDENSIYALAR VA ILG'OR XORIIY TAJRIBA



ARIPOV

Akmal Xusniddinovich

O'zbekiston Respublikasi

Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning sabablari va milliy qonunchilikdagi bo'shliqlar so'nggi statistik ma'lumotlar (2024–2025-y.) asosida tahlil qilingan. Muammolarni bartaraf etish maqsadida Yaponiya, Singapur, Tayvan kabi davlatlarning ilg'or kriminologik tajribalari (KOBAN, Yellow Ribbon, erta aralashuv dasturlari)ni milliy yuvenal yustitsiya tizimiga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar jinoyatchiligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yuvenal yustitsiya, qonunchilikdagi bo'shliqlar, xorijiy tajriba, qayta tiklovchi odil sudlov, kiberjinoyatchilik.

**Аннотация.** В статье на основе статистики 2024–2025 гг. анализируются причины молодежной преступности и пробелы в законодательстве Узбекистана. Для решения проблем предлагается внедрение передового зарубежного опыта (Японии, Сингапура, Тайваня) в национальную систему ювенальной юстиции.

**Ключевые слова:** молодежная преступность, профилактика правонарушений, ювенальная юстиция, пробелы в законодательстве, зарубежный опыт, восстановительное правосудие, киберпреступность.

**Abstract.** This article analyzes the causes of youth crime and legislative gaps in Uzbekistan based on 2024–2025 statistics. To address these issues, scientifically grounded proposals are developed to implement advanced foreign practices (from Japan, Singapore, Taiwan) into the national juvenile justice system.

**Keywords:** youth crime, crime prevention, juvenile justice, legislative gaps, foreign experience, restorative justice, cybercrime.

Bugungi kunda global miqyosda yuzaga kelayotgan geosiyosiy ziddiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning mu-rakkab asoratlari, tabiiy va texnogen xususiyatga ega ofatlar, jamiyatda xavfsizlikka tahdid soluvchi yangi omillar sharoitida mas'ul idora va tashkilotlar faoliyatini insonparvarlik tamoyili asosida yanada takomillashtirish zarurati kun tartibiga qat'iy ravishda kirib kelmoqda [1]. Axborot kommu-nikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi hamda virtual makonning yoshlar ongiga ta'siri o'ziga xos yangi

kriminogen tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Yoshlar ongining shakllanishida an'anaviy insti-tutlar (oilal, maktab, mahalla)ning ta'siri pasayib, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni keskin ortib borayotgani yangicha preventiv mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni [2], "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni [3], shuningdek, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida [4] belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish hamda mazkur sohadagi tadqiqotlar samaradorligini